



UO'K: 378.014.15

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI**МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АКСIOЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА****METHODOLOGY OF PREPARING STUDENTS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY BASED ON AXIOLOGICAL APPROACH**

Turg'unov Mirjalol Mirzaxamdani o'g'li
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada aksiologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi va nazariy-metodologik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda qadriyatlar tizimini rivojlantirish mazmuni tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье исследуются теоретико-методологические основы подготовки студентов к профессионально-педагогической деятельности на основе аксиологического подхода. Также сегодня были проанализированы вопросы использования ценностного подхода в подготовке будущих кадров и развитии их профессиональных знаний и навыков.

Abstract

This article examines the theoretical and methodological foundations of preparing students for professional and pedagogical activities based on an axiological approach. Also today, the issues of using a value-based approach in the training of future personnel and the development of their professional knowledge and skills were analyzed.

Kalit so'zlar: aksiologik yondashuv, pedagogik jarayon, kasbiy-pedagogik faoliyat, integrativ, qadriyat, qadriyatli yondashuv, aksiologik iyerarxiya, texnologiya, kognitiv, emotsional, sotsiotsentrik, genetik, milliy, tarixiy, texnologik.

Ключевые слова: аксиологический подход, педагогический процесс, профессионально-педагогическая деятельность, интегративный, ценностный, ценностный подход, аксиологическая иерархия, технологический, когнитивный, эмоциональный, социоцентрический, генетический, национальный, исторический, технологический.

Key words: axiological approach, pedagogical process, professional-pedagogical activity, integrative, value, value approach, axiological hierarchy, technology, cognitive, emotional, sociocentric, genetic, national, historical, technological.

KIRISH

Aksiologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun avvalo pedagogik faoliyatga aksiologik ehtiyojni shakllantirish, ularda milliy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan qadriyatli pedagogik faoliyatni takomillashtirish talab etiladi. Umuman olganda, har bir inson hayotida ehtiyoj bilan qobiliyat uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Qadriyatli faoliyat subyektining ehtiyoji kabi uning qobiliyati ham nafaqat fiziologik, shu bilan birga, ijtimoiy mohiyatga egadir. Binobarin, bu qobiliyatlar ijtimoiy hayot jarayonida shakllanadi, o'zgaradi va taraqqiy etadi. Demak, aksiologik faoliyat subyektini insonning aksiologik ongi, shu bilan birga, uning aksiologik ehtiyojlarini qondirish borasidagi tasavvur va qarashlarini ham o'z ichiga oladi. Modomiki, aksiologik faoliyatning maqsadi inson ehtiyojlarini qondirishdan iborat ekan, inson bu faoliyatning nafaqat subyektini, balki obyekti ham sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlash, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik asoslari N.Shodiyev, B.Adizov, O.Jamoldinova, I.Isayev, Sh.Mardonov, U.Mahkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, V.Slastenin, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, YE.Shiyanov, N.Egamberdiyeva,

M.Quronov kabilarning ilmiy izlanishlarida milliy, umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik, ta'limiy, tarbiyaviy qadriyatlarning mazmun-mohiti hamda bo'lajak o'qituvchilarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish masalasining o'ziga xos jihatlari ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan.

MDH mamlakatlarida pedagoglarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, o'qitish jarayonini loyihalashtirish va ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, O.A.Kolesnik, B.T.Lixacheva, A.I.Mishenko, V.A.Slastenin, L.F.Spirina, L.G.Semushina, V.P.Bespalko, V.M.Monaxov, G.L.Ilin, T.K.Smikovskaya, S.V.Vasekin, O.B.Yepisheva, G.A.Monaxov kabi olimlarning tadqiqotlarida keltirilgan.

Xorijlik olimlardan B.Wilson, J.Kim, Angela Stoff, Benjamin Bloom, Brian Cole, Drapeau Patty, Jaslin Holberg, Merriembar Jeron, Leyle. M.Spencer tomonidan pedagog kadrlarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Aksiologik yondashuv asosida talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun ulardagi qiziqish va ehtiyojlarni yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Ongimizni bir nuqtaga to'plab, ma'lum narsa va hodisalarga faol yo'naltirilishiga diqqat deb ataladi. Diqqat shunday bir muhim jarayonki u odamning barcha faoliyatlarida albatta ishtirok etadi. Eng sodda faoliyatdan ham eng murakkab faoliyatgacha diqqatning ishtiroksiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoyat kattadir. Diqqatning bilish jarayonidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir. Diqqat sevish, idrok qilish, xotira, xayol va tafakkur jarayonlarida har vaqt ishtirok etadi. Demak, diqqat barcha aks ettirish jarayonlarining doimiy yo'ldoshidir. U barcha psixik jarayonlarda ishtirok etsa ham, lekin yolg'iz diqqatning o'zi hech narsani aks ettira olmaydi.

Zamonaviy ta'limda har bir o'quv mashg'ulotini rejalashtirish va loyihalashtirishda ta'lim texnologiyasi modeli muhim o'rin tutadi. Rejalashtirish, ya'ni istiqboldagi istalayotgan modelni yaratish – loyihalashtirish bilan qiyoslanganda bu juz'iyroq tushuncha hisoblanadi.

Kutilayotgan natijalarga erishish maqsadida o'qituvchi tomonidan jarayonga tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ta'lim shakllari, vositalari, metodlari, texnologiyalarini oldindan to'g'ri tanlash yuzasidan to'la tasavvurga ega bo'lish jarayoni – o'quv mashg'ulotini rejalashtirish deb yuritilib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: butun ta'lim davri; o'quv yili; semestrlar (choraklar bo'yicha); oylik; haftalik; kunlik va bir soatlik nazariy yoki amaliy o'quv mashg'uloti bo'yicha.

Ta'lim jarayonini oldindan rejalashtirish esa quyidagilarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadlarini aniqlash, ya'ni "Nima uchun o'qitiladi?" degan savol haqida oldindan to'liq tasavvurga ega bo'lishi; rejalashtirilgan ta'lim mazmunini yetarli darajada egallash orqali ta'lim maqsadlariga erishish uchun ta'lim metodlarini tanlash, ya'ni "Qanday o'qitish kerak?"ligi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi; ta'lim maqsadlariga erishishda kerak bo'ladigan ta'lim vositalari, ya'ni "Nima yordamida o'qitish zarur" ekanligi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi; ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlashni tashkil etish, ya'ni "Qanday amalga oshirish maqsadga muvofiq?"ligi haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi; ta'lim jarayonida erishilgan natijalar, ya'ni oldindan belgilangan maqsadlarga erishildimi yoki yo'qmi – uni aniqlash bo'yicha to'la tassavurlarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Belgilangan malaka talablari darajasida talabalar tomonidan bilimlarning egallanishida qo'llaniladigan uch toifadagi pedagogik usullar mavjud. Birinchi toifadagi an'anaviy usullar bilimlarni "Yetkazib berish" tamoyiliga asoslanadi; Ikkinchi toifadagi noan'anaviy yoki interaktiv usullar "Faollashtirish" tamoyiliga suyanadi; Uchinchi toifadagi ilg'or yoki zamonaviy usullar ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirish va samaradorligini oshirish tamoyilidan kelib chiqadi. Mazkur usullar haqida barcha fan o'qituvchilaridan yetarli darajada tushunchaga ega bo'lish, ulardan to'g'ri va o'rinli foydalana olish malakasi talab etiladi. Chunki talabalarni: bilish jarayoniga qiziqtirishda; ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashda; mustaqil o'qib-o'rganish va bilimlarini oshirib borishga o'rgatishda; fanga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda; mantiqiy fikrlashga o'rgatishda; ta'lim samaradorligini oshirish va takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va usullarisiz maqsadga erishib bo'lmaydi.

Yangi nazariy bilimlarni egallashda qiyinchiliklar fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni so'ndiradi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etishda ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari yuqoridir. Shuning uchun zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida quyidagi omillarga asoslanish talab etiladi: ta'lim maqsadlariga erishishni malaka talablari darajasida kafolatlash; ijodiy va izlanuvchan xarakterdagi masalalarni mustaqil yecha olish; o'z

PEDAGOGIKA

sohasidagi yangilardan xabardor bo'lish va o'z ustida mustaqil ishlash; zamonaviy ta'lim va tarbiyaning ilg'or texnologiyalarini, milliy va xorij tajribalarini uzluksiz ravishda egallab borish; fanlararo integratsiyani talab etuvchi yangi murakkab kasbiy-pedagogik muammolarni hal etishga har tomonlama tayyor bo'lish; talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishini yetarli darajada o'rganish va pedagogik, psixologik hamda fiziologik jihatdan tahlil qila olish; zamonaviy ta'lim tizimida kompleks (majmuaviy) o'zgarishlar qila olish va undagi qarama-qarshiliklarni yenga olish kabilar.

O'quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o'qitish natijasida ta'lim oluvchi egallashi va bajarishi lozim bo'lgan harakatlar bo'lib, erishilgan natijalarni obyektiv baholash va belgilangan maqsadga mosligini aniqlash imkonini beradi. Bunda: ta'lim oluvchining dastlabki bilimlari aniqlanadi; o'quv mashg'ulotlari loyihalari tuzib chiqiladi; teskari aloqani yo'lga qo'yadi, ta'lim vositalari, ya'ni tezkor so'rov, savol-javob, o'quv topshirig'i natijalari taqdimotini baholashni aniqlaydi; loyihaviy faoliyat natijasini jadval ko'rinishda, ya'ni o'quv jarayoni innovatsion ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi; o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko'rinishida amalga oshiradi.

O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi – ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli, ya'ni protsessual bayoni aks etgan hujjat bo'lib, u o'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritib beradi; o'quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova ko'rinishida rasmiylashtiradi.

Texnologik xaritaga ilova o'z ichiga quyidagilarni oladi: ta'lim oluvchilar tomonidan bilim olishni faollashtirish maqsadida qo'llaniladigan test va savollar ro'yxati; guruhlarda ishlash uchun yo'riqnoma, o'quv faoliyati natijasida ta'lim oluvchilar tayanishi mumkin bo'lgan tushuncha va qoidalar. Masalan, "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "6x6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi" ("Qarorlar qabul qilish texnologiyasi"), "Tajriba vositasida o'qitish sikli" (D.Kolb g'oyasi), "Qora quti", "Venn diagrammasi" usullari, "Zig-zag", "Insert" strategiyalari, "Rolli hamda ishbop o'yinlar", "Maktab o'rtoqlik sudi" va "Zakovatli zukko" usuli kabi qoidalardir; o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida foydalaniladigan kompyuter, multimedia, yozuv doskasi, slayd, jadval hamda boshqa vizual materiallar; munozara o'tkazish uchun qo'shimcha savollar; ta'lim oluvchilar faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llashda fan o'qituvchisining axborot kommunikativ kompetentligi va kasbiy faoliyatini tashkil etish yo'llari o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligida tadbiiq etiladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda an'anaviy, noan'anaviy, interfaol va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash hamda o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darslarni tashkil etish va amalga oshirishda fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatni tashkil etish yo'nalishlari bayon etilgan.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va maxorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

XULOSA

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv zamirida har bir ta'lim oluvchining individualligi, o'ziga xosligi, rivojlanishining "jamoaviy subyekti" sifatida emas, balki birinchi galda betakror "subyekt tajribasi"ga egaligini tan olish yotadi. "Subyekt tajribasi"ni bilish jarayoniga kiritish shaxsiy ehtiyoj, qiziqish, intilish asosida o'z faoliyatini tashkil qilish demakdir. Shuningdek, o'quv ishining individual usuli va o'zlashtirishning individual mexanizmlaridan foydalanish o'quv faoliyatiga shaxsiy munosabatni qo'llanma qilib olishdir.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv shaxsning individualligini tashkil qiluvchi psixik xususiyatlar birligiga tayangan holda o'z texnologiyasi bilan individual yondashuvning muhim psixologik-pedagogik tamoyilini amalga oshiradi. Unga ko'ra, dars va o'quv mashg'ulotlarida har bir ta'lim oluvchining o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bularning barchasi yosh yetakchi o'quv faoliyati orqali ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishiga ko'maklashuvchi optimal sharoitlarni yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ашурова С.И. Махсус фанларни модуллар ўқитиш жараёнини ташкил қилиш ва ўтказиш // Касб-хунар таълими. –Т., 2004. – № 21.
2. Бондаревская Е.В. Гуманистическая парадигма личноно ориентированного образования. Педагогика. –1997. – С. 4–11, 17.
3. Макаревич М. А. Ценность// Российская социологическая энциклопедия/ Под общ. ред. Акад РАН
4. Г.В. Осипова. – М.: НОРМА-ИНФРА-М, 1998. – С.609-610.
5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132.
6. Очиллов М, Очиллова Н. Ўқитувчи одоби. Тошкент.: Ўқитувчи. 1997. –Б. 6.
7. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Тошкент.: Ўқитувчи. 2009. –Б.213.
8. Подласый И. П. Педагогика: 100 вопросов– 100 ответов. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2004. – С. 83.
9. Рахимов Б.Х. Бўлажак ўқитувчида касбий маданий муносабатларини шакллантириш тизими. Тошкент.: Фан. 2005. –Б. 10.
10. Сатторов А.Э. Бўлажак жисмоний маданият ўқитувчиларида касбий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари ва технологиялари. Автореферат, Тошкент в. Чирчиқ-2019 йил.
11. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. / Пер. с англ. – М. : Политиздат, 1992. – С. 488-494.
12. Тожиев М., Баракаев М., Хуррамов А.Ж. Муаммоли вазиятлар методидан фойдаланиб таълим жараёнини ташкил этиш методикаси // Динамик системаларнинг долзарб муаммолари ва уларнинг татбиқлари. Республика илмий конференция материаллари. – Т., 2017. – Б. 294-296.
13. Эрдниев П.М., Эрдниев Б.П. Укрепление дидактических единиц в обучении математике. – М.: Просвещение, 1986. – С. 35-36
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006. –Б. 328.
15. Хайдаров Ф.И. Муслимов Н. Педагогик кадрлар тайёрлаш истиқболи. Педагогик таълим. Тошкент.: 6-сон 2009. –Б. 8-9.